

**“HIBATU-L-HAQOYIQ” ASARIDA TIL ODOBI BILAN BOG‘LIQ
MISRALARNING BADIY XUSUSIYATLARI**

Aziza Raxatjanovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

2-bosqich magistranti

ummusolihahasanova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Adib Ahmad Yugnakiy qalamiga mansub “Hibatu-l-haqoyiq” asaridagi til odobi tasviri va u bilan bog‘liq badiiy ifoda vositalari tahlil qilingan. Til odobiga oid misralarda asosiy mazmunni ochib berishda adib tomonidan qo‘llangan badiiy san’atlar, til vositalarining tutgan o‘rni ilmiy asosda misollar yordamida ochiqqlangan.

Kalit so‘zlar: Adib Ahmad Yugnakiy, “Hibatu-l-haqoyiq”, til odobi, ilmi bade’, alliteratsiya, she’r san’atlari.

Annotation: This article analyzes the depiction of language etiquette and the associated artistic expression tools in the work "Hibatu-l-haqoyiq" by Adib Ahmad Yugnaki. The article scientifically examines the use of literary devices and linguistic tools employed by the author to reveal the main meaning in the verses related to language etiquette, providing examples to clarify their role.

Keywords: Adib Ahmad Yugnaki, "Hibatu-l-haqoyiq", language etiquette, rhetoric, alliteration, poetic devices.

Аннотация: В данной статье анализируется описание языкового этикета и связанных с ним художественных средств выражения в произведении «Хибату-л-хакайик» Адиба Ахмада Югнаки. В статье научно рассматривается роль художественных приемов и языковых средств, использованных автором для раскрытия основного содержания в стихах, связанных с языковым этикетом, с примерами для пояснения.

Ключевые слова: Адиб Ахмад Югнаки, «Хибату-л-хакайик», языковой этикет, риторика, аллитерация, поэтические приемы.

KIRISH. Bilamizki, badiiy adabiyotning asosiy vazifasi - insonni go‘zal axloqiy qarashlar, hayotiy tajribalar bilan tanishtirish, yomonlikdan qaytarish, ezgulikka chorlash, ummumbashariy g‘oyalarni targ‘ib qilishdan iboratdir. Badiiy tasvir vositalari esa mana shu maqsadni ta‘minlaydigan eng asosiy qurollardan biridir. Zero, o‘quvchi ruhiy olamiga bevosita ta‘sir qiluvchi jarayon ham asardagi badiiy tasvir vositalari, bayon uslubi, so‘z qo‘llanishidagi mahoratdan yuzaga keladigan zavqdir.[3,3]

Ayniqsa, didaktik ruhda asarlarda ma'naviy – axloqiy qarashlarni targ'ib qilishda, g'oyalarni yanada ta'sirli uslubda ifodalash, aytilayotgan fikrni dalillashda so'zlarning to'g'ri tanlovi, ilmi bade'dan mahorat bilan foydalanish mazkur asarlarning muvaffaqiyatiga sabab bo'luvchi omillardandir. Zero, o'quvchini “quruq” pand – nasihatlar, odatiy gap-so'zlar bilan ta'sirlantirish juda mushkul, kitobxon diqqatini tortuvchi voqealar rivoji, qahramonlar nutqidan xoli holatda asosiy urg'uni aynan so'zning o'ziga berish adibdan juda katta mahorat, bilim talab qiladi. Chunki tilda so'zlar adadi cheksiz, ammo uning eng keraklisini, eng munosib o'rinda qo'llash “ipga gavhar terish”dan ancha mashaqqatliroq.

Ahmad Yugnakiy o'z asarida tilni tiyish, uning odoblari, to'g'ri so'zlik va yolg'on gapirish oqibatlari haqida o'quvchiga, uning ma'naviy olamiga ta'sir qilishda qanday til vositalaridan foydalandi, asardagi baytlarning purma'noligi, aytilayotgan fikrning ta'sirchanligiga turkiy til imkoniyatlari ne chog'li xizmat qildi? Bu savollarga javob topish bizning quyidagi kichik tadqiqotimiz obyektiga aylanib, uni ochiqlashga asardan olingan misollar vositasida harakat qilindi. Asardagi til odobi bilan bog'liq misralarda adib tomonidan foydalangan badiiy til vositalari, she'riy san'atlar o'rganilib, tartib bilan ularning g'oyaviy mazmunni ifodalashdagi o'rni aniqlandi.

Avvalo, asar boshida Adib Ahmad o'z maqsad va niyatlarini kitobning yozilish sabablari va zarurati to'grisidagi beshinchi bobida quyidagicha bayon qiladi:

Bezādim kitāpnī navādir sōzūn,

Baqīylī, oqīylī asīy alsu tep,

Ya'ni, uning baytlarini o'qigan, ko'rgan inson foyda olsin deya, kitobni “navādir” so'zlar bilan bezagan, bu o'rinda “navādir” dan murod esa maqolu matallar, hikmatli gap, hadis hamda muqaddas oyati karimalarga ishoradir, bizningcha.

ASOSIY QISM.

Ahmad Yugnakiy “Hibatu-l-haqoyiq” asarida til odobi haqida qalam tebratar ekan, turkiy tiling o'ziga xos xususiyatlari hamda ilmi bade'dagi san'atlardan o'ta mohirona foydalanganki, har bir san'at yoki so'z eng asosiy mazmunni o'quvchi ongiga to'liq hamda mukammal yetkazishga xizmat qilingan.

Azaldan odob axloq haqida pand - nasihat qilinganda, purma'no so'zlar, maqol va matallar, islomdan keyingi davrda esa, ayniqsa, hadis va oyatlarga keng murojaat qilingan. Ular vositasida esa aytilmoqchi bo'lgan fikrga chiroyli dalil keltirish, uning ma'no salmog'ini oshirish, eng muhimi tinglovchi ruhiyatiga ular vositasida ta'sir qilib, maqsadga erishish nazarda tutiladi. Bu an'anaviy usul Ahmad Yugnakiy ijodida ham yetakchilik qilgan. Ilmi bade'ga ko'ra iqtibos deb nomlanuvchi san'at vositasida esa mana shu an'anadan foydalishning go'zal namunalarini yaratgan.

Iqtibos san'ati istilohda Qur'oni Karim oyatlari, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning hadislarini aynan keltirish yoki ularning mazmunini she'rda ifodalashga nisbatan nomlanadi.[9,62]Odatda, Sharq mamlakatlari shoirlari tomonidan ushbu usulga

keng murojaat qilinadi. Y.Ishoqov fikricha, bu mushtarak san’at bo‘lib o‘zida ham lafziy, ham ma’naviy unsurlarga ega.[2,27] Hazrat Navoiyning deyarli barcha asarlarida iqtibos san’atining namunalarini uchratsak, ayrim asarlari, jumladan “Arbain”lar to‘laligicha iqtibos usulida yaratilganligi ma’lum. Bizgacha yetib kelgan asarlarni kuzatish orqali shu narsa aniqlandiki, Adib Ahmad Yugnakiy turkiy adabiyotda ushbu san’atdan sermahsul foydalangan adiblardandir.

Asarda quyidagicha iqtibos san’ati namunalarini kuzatish mumkin:

- 8 ta o‘rinda Qur’on oyatlari;
- 22 ta o‘rinda Hadis sharif namunalari;
- 9 ta o‘rinda hikmatli gap va purma’no iboralar;

Ularning asardagi vazifasi ham turli xil, ba’zi o‘rinlarda fikrni dalillash uchun qo‘llanilgan bo‘lsa, ayrim joylarda mavzuni izohlash, adib aytmoqchi bo‘lgan fikrlar haqida o‘quvchiga tushuncha berish maqsadida sarlavha boshida ham oyat yoki hadislardan namuna keltirib o‘tadi. Masalan, asarning “Go‘zal axloqlar va ular bilan odoblanishga undash to‘g‘risida”gi 12-bobda Qur’on Karimning 4 ta surasidan oyatlar hamda 4 ta hadis bilan o‘quvchiga o‘zi ilgari surayotgan g‘oyaga kuchli dalil va xulosalar keltiradi.

Tadqiqotimizning bevozita obyekti bo‘lgan til odobiga oid asarning 7-bobida ham iqtibos san’atining go‘zal namunalariga guvoh bo‘lamiz.

Hadislarni asarda Adib Ahmad asosan ikki xil usulda qo‘llaydi:

- To‘rtlikda bevosita hadis mazmunida turkiy tilda ifodalash usulida;

Masalan:

Rasul: “Erni otqa yuzin atquci

Til-ol”, dedi, yiγ til, yul ottin yuzun.[8,81]

Mazkur to‘rtlikning o‘zida bevosita “Rasul dedi” – deya hadis muallifini ochiq bayon qilsa, ikkinchi to‘rtlikda hadisning turkiy mazmunini berib, muallifi haqida so‘z ochmaydi:

Eshit, but, bu so‘zgä: Qamuy taŋda tan

Turup tilgä yuċnup, tađarru‘ qilur.

Ikkila to‘rtlik so‘nggida hadislarining arabiy variantini ham keltiradi.

- Ikkinchi uslubda esa hadis mazmunini aynan keltirmaydi, balki she‘rdagi aytilayotgan fikrga yaqin ma’nodagi hadisni to‘rtlik so‘ngida berilishi bilan kifoyalanadi. Bunga misol:

Köni söz ’asal-teċ, bu yalyan –başal,

Başal yep açitma ayız, ye ’asal.

Bu yalyan söz ig-teċ, köni söz – şifā.

Bu bir söz uzaqi urulmiş masal.

Yolg‘on so‘zlash va rostg‘oylik haqidagi baytdan so‘ng “yolg‘on – kasallik, to‘g‘ri so‘zlik bo‘lsa shifodir” mazmunidagi hadisni keltirib o‘tadi.

Özgä

[8,82] و ذلك قوله عليه السلم الكذب داء الصدق شفاء

Ushbu bobda keltirilgan hadislardan asosiy maqsad esa mavzuning o‘ta jiddiyligiga ahamiyat qaratishdir. Buning isboti tarzida ilohiy va nabaviy qavllarning zikr qilinishi - to‘g‘ridan to‘g‘ri kitobxonni til ofati haqida ogohlantirish hamda so‘zlash odobiga rioya qilishga chaqirishdir.

Yana “navādir” so‘zlarni tashkil qiluvchi maqol va matallardan ham asarda juda o‘rinli foydalanilganki, bu ham adibning aytayotgan gapi o‘zining emas, ko‘p yillik tajriba va bilimga ega donishmand xalqning gapi ekanligiga isbot hamdir. Bilamizki, **Irsoli masal** – gapda yoki she’rda maqol, matal va hikmatli so‘zlarni muayyan maqsadda tamsil yo‘li bilan ishlatish san’atidir. “Hibat –ul haqoyiq” da maqol va matallarni qo‘llanilishi bilan ham mazmun, ham shakl xilma xilligiga erishilgan ko‘plab namunalariga duch kelamiz.

Bu yalyan söz ig-teg, köni söz – şifā.

Bu bir söz uzaqi urulmish masal.

Ya’ni, yolg‘on so‘z – kasallik, to‘g‘ri so‘z esa shifodir maqolining ishlatilishi ushbu san’atga misoldir.

Shuningdek,

Öçüktürmä erni tilin, bil, bu til

Başıqtursa, bütümäs, bütär oq başi.

Mazkur misralarda mashhur hikmatli gap “tig‘ jarohati bitadi, lekin til jarohati tuzalmaydi” ga ishora qilgani irsoli masalning yorqin namunasidir.

Endi bevosita asardagi so‘zlar tanloviga nazar tashlasak, bunda tilning ofati va zarari haqida gap ketar ekan, maqsadni chiroyli dalillash uchun tashbeh, istiora, tazod kabi badiiy san’atlar ko‘magida shakl va mazmunning go‘zal uyg‘unligi yuzaga keltirilgan.

Ikki qutbli dunyo tushunchasida hamisha insoniyat oldiga ikki yo‘l tanlovi qo‘yilgan: biri – ezgulik kabi ijobiy ma’noni anglatlsa, ikkinchisi –salbiy xususiyatga ega tushunchalar jamlanmasi hisoblanadi. Bu azaliy haqiqat yordamida ikki yo‘lning oxiri, ular olib boradigan manzil tanlov oldida turgan insoniyatni ogohlikka, mulohazaga chorlagan hamisha. Agar dunyo yomonlik oqibatlaridan aziyat chekmaganda edi, yaxshilik bu daraja e‘zozlanmagan, tuhmatu yolg‘onlar jabridan insoniyat boshiga mislsiz ofatlar kelmaganda edi, to‘g‘ri so‘zlik qadri bu daraja e‘tibor topmagan bo‘lar edi. Badiiy adabiyotda ham hayotiy xulosalar asosan qarama qarshi fikrlar asosida ifodalanadiki, toki kitobxon tanganing ikki tarafidan boxabar bo‘lib, o‘quvchining o‘zi xolis to‘g‘ri tanlovni qilishi kerak. She’riyatda aynan qarama qarshilik asosida qurilgan tazod san’ati shu maqsadda juda sermahsul qo‘llaniladi.

Qizig‘i, bu san’atning nomlanishida ba’zi o‘zgachaliklar bor. Jumladan, Xalil ibn Ahmad uni “mutobiqa” deb atagan, “Tarjimon ul balog‘a” da “mutazod” tarzida kelgan,

qolgan ko'pchilik adabiyotshunoslik asarlarida "tazod" atamasi bilan kelgan. Nomlanishida o'zgachalik kuzatilsada, ma'no jihatdan mushtarak fikrlar berilgan, ya'ni o'zaro qarama qarshi so'zlarni badiiy matnda keltirilishi asosiga qurilgan badiiy san'at hisoblanadi.[2, 65]

Xususan, Ahmad Yugnakiy ham til odobi haqida gapirar ekan, ezigulik va egrilik, to'g'riso'zlik va yolg'on, ko'p gapirish va sukut saqlash kabi bir biriga zid tushunchalar orqali ularning bevosita oqibat va natijalarini ko'rsatish bilan ezgu g'oyalarni qadrini yana bir pog'ona oshirib ko'rsatishga erishadi. Buni misollarda ko'rib chiqamiz:

"e'dgü" hamda "esiz" so'zlari qarshilantirilgan:

*Ne-kim kelsä ergä tilindin kelür,
Tilindin kim e'dgü, kim esiz bulur.*

Bu o'rinda o'quvchini ogohlikka chaqiradi, kishi boshiga nima klesa, uning tilidan keladi, kimdir tilidan ezgu – yaxshilik topsa, kimdir esiz – nadomat, pushaymonlik topadi. Mazkur misralarda ikki oqibat "ezgulik" va "esiz"(pushaymonlik) qarshilantirilgan.

"Könilik" va "egrilik" o'zaro zidlashtirilgan:

*Könilik tonin kiy, qoyup egrilik,
Keyim, ton talusi könilik toni*

Quyidagi baytda esa "Könilik toni" ma'no ko'chishining ajoyib misoli berilgan bo'lsa, ko'nilik va egrilik qarama qarshiligi bilan to'g'rilik to'ni – inson uchun eng yaxshi libosligi ta'kidlanadi.

Navbatdagi misolda esa "köni" – "yal'yan" hamda "asal" - "başal" so'zlar juftligi o'zaro tazodning ajoyib namunalari hisoblanadi:

*Köni söz 'asal-teg, bu yal'yan –başal,
Başal yep açitma ayüz, ye 'asal.*

Bu o'rinda bir yo'la o'xshatish va qarshilantirish orqali shakl betakrorligi ma'noning o'zgacha tarzda ifodalinishiga zamin yaratgan. Rostgo'ylikni asalga, yolg'onni – basal (sarimsoq)ga qiyoslanishi bejizga emas, asal va basal ham bir biriga qarama qarshi qo'yilibgina qolmay, to'liq qofiyani ta'minlashga xizmat qilgan. Adabiyotda ko'pincha, asal va zahar so'zlari o'zaro zidlik hosil qilishiga ko'p guvoh bo'lganmiz. Basal so'zining ishlatilishi bu o'rinda "asal" bilan o'zaro ham ma'no, ham shaklda mukammal uyg'unlik yarata olgan. Bu ham adibning so'z tanlovida juda mohirligidan dalolatdir.

Tashbih – eng keng tarqalgan so'z san'ati bo'lib ikki narsa yoki tushunchani o'zaro o'xshatish asosiga quriladi. Bundan maqsad tasvirlanayotgan shaxs yoki tushunchani o'quvchi ko'z oldida yanada aniqroq, jozibaliroq hamda ta'sirchanroq gavdalandirishdir. Shubhasiz Ahmad Yugnakiy o'z asarida tashbehdan serunum foydalangan. Jumladan, til odobiga oid fikrlarini ifodalashda rost so'z hamda yolg'onni, egrilik va to'g'rilikni, tilni tiyish kabi tushunchalarni juda sodda va shuning bilan birga esda qolarli o'xshatishlar bilan bayon qiladiki, uni o'qigan har qanday kitobxon adib maqsadini tezda ilg'ay oladi, she'rdagi mazmunni anglashda yengillikni his qiladi. Bunga misollar talaygina, masalan:

San'ip sözlägän er sözi söz sayı,

Öküş yaşıyan til- unalmas yayı.

Ko'p vaysagan tilni murosaga kelmaydigan dushmanga qiyoslanishi, “til” – “dushman” o'zaro o'xshatilishiga guvohi bo'lamiz.

Bu yalyan söz ig-teg, köni söz – şifā.

Bu bir söz uzaqi urulmish masal.

Bu misralarda “yolg'on so'z” – “kasallik” hamda “to'g'ri so'z” – “shifo” o'xshatishlari, juda aniq va sodda topilmaki, o'quvchi tezda ularning ahamiyati va zararlaridan ogoh bo'la oladi.

Tanosub san'atida, bilamizki, shoir tasvirda ma'no jihatdan yaqin bo'lgan so'zlardan yoki bir sohaga oid atamalardan foydalanadi. Masalan:

Bu yalyan söz ig-teg, köni söz – şifā.

Bu bir söz uzaqi urulmish masal.

Misralarida tibbiy ma'nodagi “ig” va “şifā” so'zlari tanosub san'atini hosil qilibgina qolmay, balki o'zaro zid ma'nolarni berib tazod san'atiga ham namuna bo'ladi.

Tiliñ bektä tutyıl, tişin sünmasun,

Xalī čiqsa bektin, tişinni siyur.

Quyidagi misralarda ham inson tana a'zolari “til” hamda “tiş” tanosubga yorqin misol vazifasini bajaradi.

Ishtiyoq – til qoidalari hamda grammatik xususiyatlariga asoslangan ushbu san'atda tizma yoki sochma parchada o'zakdosh so'zlar uyushib keladi. Bunda gap bo'laklari orasida sintaktik aloqalardan tashqari o'zak nuqtai nazaridan ham aloqadorlik mavjud bo'ladi.[3,44] Bu o'z navbatida aytilmoqchi fikrni kuchaytirishga, yanada ta'kid bilan ifodalashga xizmat qiladi. Masalan:

Öçüktürmä erni tilin, bil, bu til

Başıqtursa, bütümäs, bütär oq başı.

Mazkur o'rinda *başıqtursa, başı, bütümäs, bütär* so'zlari tanosubga misoldir. Bunda tavze'ning ham yorqin misolini ko'rishimiz mumkin.

Ködäzgil tiliñni, kel, az qıl sözüñ,

Ködäzilsä bu til, ködäzlür özün.

O'zakdosh so'zlar takrori fe'l so'z turkumiga oid qo'shimchalari bilangina farq qilib kelgan.

Tajnis – lug'aviy ma'nosi jinsdosh, hamjins ma'nolarini anglatuvchi ushbu san'atda shaklan bir xil, ma'no jihatdan boshqa ma'nolarni ifodalovchi so'zlar (omonim)ni qo'llash bilan nozik so'z o'yinlari yaratilishiga imkon beradi. Masalan:

Safih er tili öz başı duşmanı,

Tilindin töküldi telim er qanı.

Öküş sözlägändä öküngän telim,

Tilin beklägändin ökünmiş qanı?

Ikkinchi misradagi “qani” qon ma’nosida, to’rtinchi misradagi esa “qani?” so’roq olmoshi vazifasida kelgan.

Tasbig’- takrorlarga asoslangan san’atlardan biri bo’lib, bunda oldingi gap, misra yoki bayt oxirida joylashgan so’z, so’z birikmasi, keying gap, misra yoki baytda qaytarilib fikriy izchillik ta’minlanadi.[3, 51] Tasbig’ga misol:

Köni söz ’asal-teg, bu yalyan –başal,

Başal yep ačıtma ayız, ye ’asal.

Birinchi misra oxiridagi “başal” so’zi keyingi misra boshida ham takrorlanyapdi.

Tavze’ (alliteratsiya) shunday san’atki, bunda shoir o’z fikrini ifodalashda yangroqdosh, ya’ni bir xil yangroq tovushga ega bo’lgan so’zlardan foydalanadi. [3,34]. Badiiy tasvir vositalari ichida ohangdosh tovushlardan foydalanish uslubi turkiy adabiyotda uzoq tarixga ega. Ilmi bade’da tajze’ istilohi bilan yuritilgan mazkur san’at namunalari qadim O’rxun Enasoy yodgorliklari matnlarida, XI asrga oid “Devoni lug’atit turk” asarida berilgan maqollar va she’riy parchalarda bunga yorqin misoldir.

“Hibatul haqoyiq”da ham ushbu usul yetakchilik qiladi va bunga misollar ham talaygina.

“t” tovushi takrori kelganiga misol:

Safih er tili öz başı duşmanı,

Tilindin töküldi telim er qanı.

“b” tovushi ga misol:

Öçüktürmä erni tilin, bil, bu til

Başıqtursa, bütümäs, bütär oq başı.

“s” tovushiga misol:

Serip sendä rāzih sihip turmasa,

Serärmü ešindä, munı keđ saqın.

“k” tovushiga misol:

Köni bol, könilik qıl, atan köni,

Köni teyü bilsün kişilär seni.

Könilik tonin kiy, qoyup egrilik,

Keyim, ton talusi könilik toni

Oldingi misollarda alliteratsiya faqat bir misrada yuzaga kelgan bo’lsa, mazkur to’rtlik boshidan oxirigacha ohangdoshlik asosida yaratilgan.

XULOSA. Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibatu-l-haqoyiq” asarida so’zlar tanlovida o’ta mohirona yondashuvining guvohi bo’lamiz. Asardagi qo’llanilgan ilohiy kalomdan tortib, xalq og’zaki ijodi namunalari, ko’p va qarama –qarshi ma’noli so’zlar, hatto kichik qo’shimchalarning ma’no anglatishdagi vazifasidan tortib, tovushlar ohangdorligi – barchasi asosiy g’oyani chiroyli usulda o’quvchiga uqtirish funksiyasini bajargan.

REFERENCES

1. Древнетюркский словарь Л.: “Наука”, 1969. – 676 с.
2. Исҳоқов. Ё. “Сўз санъати сўзлиги” – Тошкент: Зарқалам, 2006. -126 б.
3. Рустамов А. “Навоийнинг бадиий маҳорати” Тошкент.: Ғафур Ғулом, 1979.
4. Содиқов Қ. “Туркий ёзма ёдгорликлар тили: Адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши” Т.: 2006 й. – 124 б.
5. Sodiqov Q. Qoraxoniylar davri turkiy yozma yodgorliklari.- Toshkent: Akademnashr, 2025. 360 b.
6. Sodiqov Q. O‘zbek mumtoz adabiyoti. - Toshkent: Akademnashr, 2022. 320 b.
7. Кошғарий, Махмуд Девони луғати-т-турк (Туркий сўзлар девони) – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижод уйи, 2017 . 488 б.
8. Югнакий, Адиб Аҳмад. Ҳибат-ул-ҳақойиқ. Қ.Содиқов транскрипцияси, талқини ва таҳлилида –Тошкент: Akademnashr, 2019. 168 б.
9. Ҳожиахмедов А. “Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия” . Т:- Шарқ. 1998.